

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Shermuhammadov, B.Qurbonova</b>	
Hamkorlikdagi faoliyat treningini o'tkazish usullari.....	9
<b>T.Egamberdieva, N.Gafurova</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda gender tengligi masalalari .....	13
<b>N.O'rinova</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlash texnologiyalari .....	17
<b>I.Siddiqov</b>	
Aralash ta'lim – bo'lajak tarixchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida .....	21
<b>M.Barakayev, X.O'rinov</b>	
Matematika o'qituvchisi tayyorlash metodik sistemasining nazariy jihatlari.....	26
<b>X.Umarov</b>	
O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari .....	31
<b>N.Xodjibolayeva</b>	
Talabalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda Abdurauf Fitratning ijtimoiy-ekologik qarashlarining ahamiyati .....	39
<b>S.Uraimov</b>	
Kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanganlik ko'rsatkichlarining pedagogik tahlili .....	44
<b>D.Malikova</b>	
Ta'lim makonida madaniy muhitning tarixiy omillari.....	48
<b>A.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish tizimi.....	51
<b>I.Sharofutdinov</b>	
Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarning akmeologik kompetentligini rivojlantirish .....	59
<b>J.Qurbonov</b>	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual madaniyatni rivojlantirishning integrativ ta'lim texnologiyalari.....	65
<b>M.G'ofurova</b>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida tadqiqot metodlarini qo'llashning samaralari .....	69
<b>G.Maxsudova</b>	
O'quvchilarda ekosavodxonlikni shakllantirishning rivojlantirishda milliy ma'naviy qadriyatlarining ahamiyati .....	74
<b>V.G'aniyeva</b>	
O'yinning bola faoliyati sifatidagi mohiyati va o'ziga xosligi .....	78
<b>Sh.Karimova</b>	
Talabalarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mustaqil ishlarni tashkil etishning lokal-modulli texnologiyasi .....	82
<b>F.Raximova</b>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali bo'lajak tarbiyachilar ijodiy faoliyatini rivojlantirish tizimini takomillashtirish muammolari .....	85
<b>D.Rafikova, Z.Ibroximova</b>	
Ta'limni modernizatsiyalash jarayonida smart texnologiyalardan foydalanishning istiqbollari va muammolari.....	88
<b>U.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish pedagogik-psixologik asoslari .....	92

**O'QUVCHILARDA JINOYAT VA JAZO TUSHUNCHALARIGA DOIR BILIMLARNI RIVOJLANTIRISH TUZILMASI VA KOMPONENTLARI****СТРУКТУРА И КОМПОНЕНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗНАНИЙ О ПОНЯТИЯХ ПРЕСТУПЛЕНИЯ И НАКАЗАНИЯ У СТУДЕНТОВ****STRUCTURE AND COMPONENTS OF THE DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE OF THE CONCEPTS OF CRIME AND PUNISHMENT IN STUDENTS****Xusanboy Umarov Rustamovich<sup>1</sup>**<sup>1</sup>**Xusanboy Umarov Rustamovich**

– Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish masalalarini tadqiq etish zarurati, bir tomondan, tinmay o'zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, demokratik islohotlar, mamlakatni zamonaviylashtirish ehtiyojlari jamiyat oldiga yangidan-yangi muammolar qo'yayotgani, ikkinchi tomondan, o'quvchilar ongi, dunyoqarashi, hayot tarzida jamiyatdagi o'zgarishlarga muvofiq o'zgarishlar sodir bo'layotgani bilan bog'liq fikr-mulohazalar bayon qilingan.*

**Аннотация**

*В данной статье защита прав и свобод граждан является приоритетной задачей каждого демократического государства, а предупреждение и борьба с преступлениями, совершаемыми студентами, является одним из самых актуальных вопросов в современном мире. В связи с этим представлены мнения о развитии воспитательного, правосознания, правовых знаний и правовой культуры молодежи.*

**Abstract**

*In this article, the protection of the rights and freedoms of citizens is a priority task of every democratic state, and the prevention and fight against crimes committed by students is one of the most urgent issues in the world today. In this regard, opinions on the development of educational, legal consciousness, legal knowledge and legal culture of young people have been presented.*

**Kalit so'zlar:** O'quvchi-yoshlar, Fuqarolik jamiyati, jinoyat va jazo, ijtimoiy zarurat, huquqiy bilim, huquqiy madaniyat, inson huquq, bozor iqtisodiyoti, Ta'lim va tarbiya, oila va nikoh.

**Ключевые слова:** Студенческая молодежь, Гражданское общество, преступление и наказание, социальная потребность, правовые знания, правовая культура, права человека, рыночная экономика, Воспитание и воспитание, семья и брак.

**Key words:** Student-youth, Civil society, crime and punishment, social need, legal knowledge, legal culture, human rights, market economy, Education and upbringing, family and marriage.

**KIRISH**

O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. 1991-yilning 20-noyabrda «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to'g'risida»gi 429-son qonun qabul qilinib, yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishi, xalqimizga munosib farzandlar bo'lib yetishishi, fan-texnika yangiliklarini egallashi, jamiyat va davlat taraqqiyotiga hissa qo'shishlari lozimligi ko'rsatib berildi.

Zamon talablaridan kelib chiqib, keyingi yillarda davlatimizda yoshlarga oid yangi davlat siyosati joriy qilindi. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentyabrda qabul qilingan «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi O'RQ-406-son Qonunning 10-moddasi ta'lim muassasalariga bir qator vazifalarni, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarni jinoyatchi bo'lib qolishdan saqlash mas'uliyatini yuklaydi. Darhaqiqat, maktabda 11 yil ta'lim olgan bola jinoyatchi bo'lib qolishi achinarli holat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev: «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi, avvalambor, tarbiya va muhit bilan bevosita bog'liqdir»[1:112], degan edi. Shuningdek, Oliy Majlisga Murojaatnomasida ham «Ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi» degan hikmatli so'zni eslatib, faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklashini uqtirdi.

O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarini yuksaltirish vazifasining dolzarbligi shundaki, bugun respublikamizning qariyb 60 foizini 30 yoshgacha fuqarolar tashkil etishini hisobga olsak, yangi avlodning paydo bo'lishiga olib keladi. Shu o'rinda aytib o'tishimiz

kerakki, jinoyat huquqi va kriminologiya nazariyasi, qonunchilik hamda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashish va uning barvaqt oldini olish amaliyotida «voyaga yetmagan», «jinoyat», «jinoyatchilik», «voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi» kabi mazmunan o'zaro aloqador bo'lgan tushunchalarning ahamiyati atroflicha o'rganilib, O'zbekistonda 30 yoshgacha bo'lganlarni uch guruh: bolalar (tug'ilganidan to 14 yoshgacha bo'lganlar), voyaga yetmaganlar (14 yoshga to'lgan va 18 yoshgacha bo'lganlar), yoshlar (18 yoshga to'lgan va 30 yoshgacha bo'lganlar)ga ajratish kerakligi taklif qilingan.

Bugungi kunda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlar 10 million 500 ming nafarga yaqin bo'lib, umumiy aholining taxminan 40 foizidan ortiqrog'ini tashkil etadi. 18 yoshgacha bo'lgan davrda insonning ongi, axloqi, ma'naviy qiyofasi shakllanadi. Shu bois voyaga yetmagan va yoshlar manfaatlari hamda huquqlarini himoya qilishga davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida jiddiy e'tibor berilmoqda.[2;58]

O'quvchi-yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish masalalarini tadqiq etish zarurati, bir tomondan, tinmay o'zgarib borayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, demokratik islohotlar, mamlakatni zamonaviylashtirish ehtiyojlari jamiyat oldiga yangidan-yangi muammolar qo'yayotgani, ikkinchi tomondan, o'quvchilar ongi, dunyoqarashi, hayot tarzida jamiyatdagi o'zgarishlarga muvofiq o'zgarishlar sodir bo'layotgani bilan bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi PF-5618-son farmonida jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari qatorida «... fuqarolar ongida «Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!» degan hayotiy g'oyani mustahkamlash» vazifasi belgilangan. Davlatimiz va hukumatimiz tomonidan jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha zarur huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Ularda yurtimizda huquqiy bilimlarni singdirishni hozirgi murakkab va tahlikali davrda yangi bosqichga ko'tarish zarurligi belgilab berilgan. Bu vazifa, ya'ni «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish...» lozimligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, hujjatga muvofiq, jamiyatda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatni yuksaltirish «shaxs — oila — mahalla — ta'lim muassasasi — tashkilot — jamiyat» prinsipi bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etilgan.

Oila – bolani tarbiyalashning asosiy dorifununi hisoblanadi. Bolalar xulq namunalarini o'z ota-onalaridan o'rganadilar, chunki aynan ota-onalar xulq-atvorni baholash me'yorlarini aniqlab beradilar. Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Bolaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.[3:112]

Oiladagi muhit farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabat shakllangan tarbiya tizimi bolalarda huquqqa, jinoyat va jazo tushunchalariga bo'lgan dastlabki qarashlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Yoshlarni, avvalo, oila tarbiyalaydi. Oila muhiti o'zaro hurmat, oliyjanoblik, halollik asosiga qurilgan bo'lsa, oila boshliqlari o'z vazifalariga sidqidildan qarasarlar, jamiyatning bunday yacheykasidan yaxshi fuqarolar yetishib chiqadi.[4]

Fikrimizcha, oilada bolalarga huquqiy tarbiya va odob-axloqning boshlang'ich qoidalarini o'rgatish bo'yicha ota-onalar uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish, oila davrasida huquqiy savodxonlikni oshirishga mo'ljallangan, har bir elementar jinoyat va jazoga oid huquqiy bilimlarni o'rgatishga qaratilgan va kundalik hayotdagi muhim masalalar yuzasidan huquqiy qo'llanma tayyorlash va bepul tarqatish zarur.

Bolalar ko'pincha ota-onalariga taqlid qiladilar, ular kabi xatti-harakatlarni bajaradilar, ularning rolini ijro etadilar, shu sababli boladagi xulqiy buzilishlar korreksiya qilinadi va zarur maslahatlar berilar ekan, buni nafaqat bolalar bilan, balki ularning ota-onalari bilan ham amalga oshirishga to'g'ri keladi. Umrimiz bahori bo'lmish yoshlik faslini bekorga sovurish katta jinoyatdir. Bu yoshda ulkan ishlarni qilishga ulgurish, intilish kerak. Yoshlik shu narsa bilan baxtiyorki, uning kelajagi bor.

O'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirishda mahalla faollarining oilalar va ta'lim muassasalari bilan uzviy hamkorlikda tizimli ish olib borishi, tarbiya talablarining bajarilishida yoshlar ta'lim-tarbiyasiga mas'ul bo'lgan davlat va nodavlat tashkilotlari, mahalla va oilaning barobar ishtiroki, yoshlarda burch va mas'uliyatni anglash, o'z harakatlarini

## PEDAGOGIKA

to'g'ri baholash, o'zini nazorat qilish kabi sifatlarni shakllantirishda oila va mahalla hamkorligi samarali, sermahsul bo'lishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, o'quvchilarning huquqiy ongi, jinoyat va jazoga oid bilim va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ijtimoiy ongini tarbiyalash, ijtimoiy xatar guruhi bolalari bilan pedagogik muloqot olib borish, jinoyatchilikning oldini olish masalasi har doim ham eng muhim va dolzarb masalalardan biri bo'lib kelgan.

Mahalla bilan oila o'rtasida o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam, bir-biriga ishonch holati mavjud ekan, bunday mahallada ulg'ayayotgan oilalar farzandlari rostgo'y, samimiy, xalqparvar, mehribon, sadoqatli, do'stlariga doimo yordam berishga tayyor bo'lgan insonlar bo'lib ulg'ayadi. O'zida odobli kishiga xos fazilatlarini mujassamlashtirgan kishilarning oilalarida doimo huzur-halovat va samimiy hurmat qaror topadi.

Keyingi vaqtlarda mahalla ma'naviy-axloqiy muhitida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil qilish yaxshi an'anaga aylanib bormoqda. Bu borada, ayniqsa, ichki ishlar idoralari hamkorligi asosida hamda turli mavzular bo'yicha mutaxassislar ishtirokida mahallalarda tashkil etilayotgan davra suhbatlaridan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchi-yoshlarni jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni rivojlantirish, turli huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olishdan iboratdir. Mazkur tajribani respublika miqyosida yanada takomillashtirish va ommalashtirish davr talabidir. Chunki, buning vositasida mahalla ahlining, xususan, o'quvchi yoshlarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini yuksaltirish, salohiyatini oshirish hamda noqonuniy ishlar ta'siridan himoyalash mumkin.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Xalqimizda «Do'sting kimligini aytsang, sening kimligingni aytib beraman» degan naql bor. Xuddi shunday bizda «Mahallangni ayt – kimligingni bilib olaman» qabilida fikrlar mavjud. Ya'ni mahalla hamisha fuqarolarining xulq-atvori, oilalarning yashash tarzidan xabardor bo'ladi, kerak bo'lsa xulqiga yaxshigina ta'sir ko'rsata oladi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarni shakllantirish tizimi fuqarolar yig'ini tavsiyalari «Oila – mahalla – ta'lim muassasasi» jamoat kengashi hamda «Ota-onalar universiteti» jamoatchilik tuzilmasi bilan o'zaro integrativ hamkorlik asosida rivojlantirilgan pedagogik andozasi asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish ijobiy samaralar garovidir.

Uzluksiz ta'lim inson uchun butun hayoti davomida egallaydigan ta'lim ekanligi fanda ma'lum. Shuningdek, huquqiy bilim, huquqiy madaniyat ildizlari muqaddas dinimiz, buyuk donishmandlar, mutafakkirlar asarlarida mavjud. Ikkinchi tomondan dunyodagi mamlakatlar tajribasidan foydalangan holda yaratilgan qonunlarimiz. Bular – bizning ma'naviy boyligimiz.[5:112]

Fikrimizcha, sohaga oid mavjud boy ma'naviy merosimiz va dunyoviy, huquqiy qonunlarning o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlash o'ta zarurdir. Zero, har qanday harakat hujjatlarning negizi, asosi bo'ladi. Bu muvaffaqiyatlar kaliti bo'lib xizmat qiladi, shubhasiz. Aksariyat oilalarda bolalarga «unday qilma, yomon bo'ladi», «qonunni buzsang, jinoyat sodir etgan bo'lasan va unga yarasha jazo bor», degan gaplar aytiladi. Ota-ona har bir ishda farzandlariga namuna bo'ladi, hayotiy tajribasini o'rgatadi. Gunoh ishlardan tiyilish to'g'risidagi pand-nasihatlarning ham amaliy ahamiyati bor. Yaxshi oiladan, albatta, yaxshi farzand chiqadi.

Ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim turida 3–7 yoshli bolalarda ilk huquqiy ta'lim-tarbiya berishda bolalarning yosh xususiyati e'tiborga olinadi. Bu davrda bolalarga huquqiy ta'lim o'yin tarzida, tevarak-atrof, tabiat bilan tanishish, odobnoma mashg'ulotlarini mujassamlashtirib, qonun-qoidalarga rioya etishga moslab olib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida esa oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida olgan tarbiya takomillashtiriladi.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarida bolalarning xususiyati e'tiborga olinib, shu yo'nalish bo'yicha 10 soat dars o'tiladi. Fanlar tarkibida mavzularga bog'lab, huquqiy tushunchalar berib boriladi.

5–7-sinflarda «Konstitutsiya olamiga sayohat» fanidan 17 soat dars o'tiladi. O'quvchilarga bu sinflarda Konstitutsiya va inson harakatlari erkinligi, zararli odatlar va qonun, voyaga yetmaganlarning mulkiy huquqlari va ular tomonidan bitimlar tuzilishi, is'temolchilar huquqlari, ma'muriy huquq tushunchalari berib boriladi.

8-sinfda «O'zbekiston davlati va huquqi asoslari» fanidan 34 soat dars o'tiladi va o'quvchilarda jamiyat, davlat, davlatning funksiyalari, davlatning boshqaruv tuzilishi, siyosiy

tartiboti, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati va davlatning boshqaruv organlari, huquq va huquqiy munosabatlar, huquqbuzarlik kabi muhim huquqiy bilimlar shakllantiriladi.

9-sinfda «Konstitutsiyaviy huquq» fani 34 soat o'tiladi. O'quvchilar dars jarayonida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilishi haqida, inson va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari, burchlari, jamoat birlashmalari, davlatimizning ma'muriy hududiy tuzilishi, davlatning boshqaruv organlari faoliyati haqida va boshqa muhim huquqiy mavzularni o'rganadi.[6:3-9]

Maktablarda huquqiy tarbiyaning nazariy asoslari dars va darsdan tashqari tadbirlar orqali ham amalga oshiriladi. O'quvchilarga milliy qadriyatlar to'g'risida gapirganda insonparvarlik, ozodlik, erkinlik, mustaqillik to'g'risida yetarli ma'lumotlar berilishi kerak.

O'quvchi-yoshlar orasida huquqbuzarlikning oldini olish masalalariga e'tiborni kuchaytirish, pedagogik va psixologik korreksiya metodlariga murojaat etishni talab etadi.

Shu o'rinda «Voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari bo'yicha komissiyasi» Fuqarolar yig'inida voyaga yetmagan bolalar bilan ishlovchi xodimlar bilan profilaktika inspektori hamkorligidagi ishlarga to'xtalib o'tamiz:

- o'quvchi-yoshlar davomatini ta'minlash, bunda darslarga sababsiz qatnashmayotgan o'quvchilarning xonadonlariga tashrif buyurib, sabablarini aniqlash, ota-onalari bilan tushuntirish ishlarini olib borish;

- notinch va noqobil oilalarni sog'lomlashtirish, oilalarning har birining muammolarini o'rganib, ularda sog'lom muhit yaratish bo'yicha «Ota-onalar universiteti» bilan amaliy ishlar olib borish, mahalladagi namunali oilalar, mahalla faollaridan murabbiylar birlashtirish orqali oiladagi muhitni yaxshilash, ayrim muammoli (giyohvand, ruhiy kasal, ichkilikka berilgan) fuqarolarni majburiy tarzda davolash muassasalariga joylashtirish orqali sog'lomlashtirish;

- jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, jamoat tartibini saqlash, bunda hududda jinoyat va huquqbuzarlik sodir etilishiga moyil bo'lgan fuqarolar ro'yxatini tuzish, ushbu toifadagi fuqarolarni alohida nazorat va kuzatuvga olish hamda ularni mahalladagi Yarashdirish komissiyasi orqali tushuntirish, aholi gavjum bo'ladigan joylarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mahalla posbonlari va huquq tartibot organlari bilan hamkorlik qilish;

- voyaga yetmaganlar nazoratsizligi va qarovsizligining oldini olish bo'yicha mahalla hududidagi kafe, internet klublarda tungi paytlar voyaga yetmaganlarning qarovsiz yurishlari, notinch oilalardagi voyaga yetmaganlarning nazoratsiz qolishini oldini olishga qaratilgan tadbirlar tashkil etish;

- giyohvandlik, spirtli ichimliklarga ruju qo'ygan fuqarolar bilan ishlash, oilasidagi ma'naviy muhitni yaxshilash, farzandlarining tarbiyasi bilan shug'ullanish uchun voyaga yetmaganlar, yoshlar va sport masalalari komissiyasi a'zolaridan murabbiylar birlashtirish, fuqarolarni sog'lom hayotga qaytarish, maxsus narkologiya dispanserlarida davolash choralarini ko'rish, tuzalish yo'lga kirmagan giyohvandlarga majburiy davolash choralarini ko'rish;

- muqaddam sudlanganlar bilan ishlash bo'yicha profilaktika inspektori bilan hamkorlikda oilasiga borib qayta jinoyat sodir etmasligi yuzasidan suhbatlar o'tkazish, oilasi o'rganilib, ijtimoiy himoyaga muhtojlarini qo'llab-quvvatlash;

- diniy vaziyatni barqarorlashtirish bo'yicha diniy oqimga mansub fuqarolar, ularning oila a'zolari, farzandlari ro'yxatini shakllantirish, ro'yxat asosida oilalarning turmush tarzini alohida nazoratga olish, diniy oqimlar ta'siriga tushib qolgan yoshlarni to'g'ri yo'lga qaytarish, ish bilan ta'minlash bo'yicha choralar belgilash, mahalla murabbiylaridan birlashtirish.[7:36-42]

O'quvchilarning shaxs va subyekt sifatida shakllanishi, aqliy rivojlanishi, tarbiyalanganlik darajasining o'sishi, jamiyat tomonidan belgilangan odob-axloq, xulq normalariga mosligi ularning kelajakda jamiyatning teng huquqli fuqarosi sifatida faoliyat yuritishiga zamin yaratadi.

O'spirin yoshdagi o'quvchilar o'zlari uchun ideal tanlashga intiladilar. Ushbu istakni rag'batlantirish maqsadida ular o'rtasida adolat, erk, odillik timsoli bo'lgan, el-u yurt tinchligi, vatan xavfsizligi yo'lida qurbon bo'lgan kishilar to'g'risidagi ma'lumotlarni berishga qaratilgan faoliyatni tashkil etish o'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish yo'llaridagi muhim omil bo'ladi. O'z ideallari shaxsidan namuna o'zlashtirish o'spirinlarda ijtimoiy mas'ullik xislatlarining shakllanishiga, jamiyatda erk va adolat, qonun ustuvorligiga erishish uchun kurash g'oyalariga sodiqlik hissining uyg'onishiga olib keladi.

Globalashuv jarayonida ommaviy axborot vositalari (OAV)ning ta'siri nihoyatda o'tkir qurolga aylanib bormoqda. Bugungi kunda bu jarayon kundalik hayotimizda o'z aksini topmoqda.

## PEDAGOGIKA

Axborot oqimlarining televideniye, radio, matbuot va internet tarmoqlari orqali kirib kelishi o'quvchi-yoshlarimizni barkamol shaxs qilib tarbiyalashimizda muhim o'rin tutadi.

Yoshlarning siyosiy bilimni shakllantirish fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'biri bilan aytganda: «... ommaviy axborot vositalari har bir kishi o'z fikrini ifoda eta olishiga imkon beradigan erkin minbar bo'lishi kerak. Ayni shu ommaviy axborot vositalari jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilishi, odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishi lozim».[8:371.]

Tan olib aytish lozimki, ommaviy axborot vositalari aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish va uni yuksaltirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Internetdagi Lex.uz saytining xizmatlari barchaga manzur bo'lmoqda. Unda barcha normativ-huquqiy hujjatlar bo'yicha ma'lumotlar muntazam berib boriladi. Har bir oilaga tez kirib boradigan televideniya Oliy Majlis palatalari faoliyati, deputatlarining qonunlar bo'yicha sharhlari, Konstitutsiya va qonunlarning ayrim moddalari mazmuni, saylovlar haqida turkum ko'rsatuvlar namoyish etiladi. Mavjud barcha gazeta-jurnallarda huquqiy bilimlar berishga katta e'tibor qaratiladi. Muntazam ravishda Konstitutsiya va qonunlar to'g'risida maqolalar, huquqiy maslahatlar, huquqiy mavzuda savol-javoblarning berib borilishi fikri mizning dalilidir. Ayniqsa, huquq himoya mavzusida «Huquqshunos», «Huquq va burch», «Fuqarolik jamiyati», «Demokratlashtirish va inson huquqlari», «Huquq», «Huquq olamida», «Adolat», «Postda» kabi 20 ga yaqin gazeta-jurnallarda mutaxassislar tomonidan huquqiy munosabatlar va qonunlarning mazmun-mohiyatini singdirish bo'yicha maslahat, yo'l-yo'riqlar berib boriladi. Barcha viloyat va tijorat gazetalarida ham davlatimizning ichki va tashqi siyosati aks ettirilgan xabarlar, qonunchiligimizga oid turkum maqolalar, «Huquqiy maslahatxona», «So'rang – javob beramiz», «Bizdan so'ragan edingiz» ruknlari ostida huquqiy maslahatlar havola etilishi gazetxonlarning huquqiy bilimlarini oshiradi.

Shu o'rinda, «Ommaviy axborot vositalarining yoshlar ongiga va butun jamiyatga qay tarzda va qay darajada ta'sir etadi?» degan savolga javob izlash, ushbu masalani kengroq o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari, ya'ni televideniye, radio, matbuot, ilmiy-ommabop adabiyotlar, axborotnomalar o'quvchi-yoshlar siyosiy bilimni yuksaltirishning eng samarali vositalari hisoblanishini e'tiborga oladigan bo'lsak, ularning bu boradagi faoliyat yo'nalishlarini tahlil etish va ularni takomillashtirish bo'yicha tegishli taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etayotganligining guvohi bo'lamiz. Binobarin, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlik jamoatchilik fikrining holatiga bog'liq bo'lib, uni shakllantiruvchi ommaviy axborot vositalari faoliyatiga jiddiy e'tibor berish zarur, degan xulosa kelib chiqadi.

Ta'kidlash joizki, ijtimoiy fanlarda ommaviy axborot vositalarining shaxs ongi hamda uning siyosiy-huquqiy bilimlarini oshirishga ta'sir etish darajasi yuzasidan bir qator nazariyalar yaratilgan. Ommaviy axborot vositalariga jamiyatning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish vositasi hamda unga jamiyat a'zolarining ruhiyatiga ta'sir o'tkazuvchi kuchli manipulyativ qurol tariqasida yondashadigan nazariyalar shular jumlasidandir:

– birinchi nazariyada inson axborotni faol filtrlovchi individ sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, inson o'zining ehtiyojidan kelib chiqib, kerakli axborotni tanlash va undan foydalanish huquqiga ega bo'lishi lozim;

– ikkinchi nazariyada esa insonga axborotni passiv qabul qiluvchi sifatida qaralib, ommaviy axborot vositalari hukmron doiralarning jamiyatga nisbatan manfaatlarini amalga oshirishda vosita sifatida maydonga chiqishi to'g'risidagi g'oya ilgari suriladi.

Har qanday jamiyat istiqboli, eng avvalo, mazkur jamiyatda yashaydigan o'quvchi-yoshlar siyosiy bilimlarining qay darajada shakllanganligi va ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki bilan belgilanadi. O'zbekistonda aholining ushbu qatlami salmoqli qismga ega bo'lib, ularning bor ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, tashabbuskorligi va faolligini qo'llab-quvvatlash, shijoati va g'ayratini aniq ezgu maqsadlar sari yo'naltirib borish davlatimiz uchun strategik ahamiyatga molik vazifalardan biri hisoblanadi. Bugungi kun o'quvchi-yoshlari axborot texnologiyalari shiddat bilan rivojlanayotgan davrda yashamoqda. Faqatgina OAV orqali balandparvoz siyosiy chiqishlar qilib, yoshlarning qalbidan joy olish mushkul ish. Shuning uchun zamon bilan hamnafas bo'lib o'sib kelayotgan hozirgi o'quvchi-yoshlar ongiga yangi, teran fikrlarni singdirish bilan birgalikda, ularda shakllanib borayotgan mustaqil, tanlash huquqiga ega bo'lgan erkin pozitsiyani, sodir bo'layotgan barcha jarayonlarga nisbatan tanqidiy qarashlarini ham inobatga olish zarur. Shunisi e'tiborliki,

bugungi kunda o'quvchilarimizning ijtimoiy ongi, hayotga munosabati, siyosiy yetukligi, yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan daxldorlik hissi, fuqarolik mas'uliyati oshib bormoqda. Jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-madaniy yuksalib borayotganligi o'quvchilarning dunyoqarashi, motivasion-ehtiyojijy doirasi, shaxsiy qobiliyatlari va ichki imkoniyatlarining ro'yobga chiqishiga ta'sir ko'rsatmoqda.[9]

O'quvchilar siyosiy bilimining shakllanishida ularni har tomonlama axborot bilan ta'minlash chora-tadbirlari muhim ahamiyatga ega. Ya'ni, yosh fuqarolarni o'z huquq va majburiyatlari, shuningdek, ularga taalluqli bo'lgan barcha jabhalardagi ma'lumotlar bilan tanishtirib borish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan islohotlar to'g'risidagi keng ko'lamlil axborotlarni yetkazib borishga qaratilgan tashkiliy ishlar o'quvchilarning bilim saviyasi, dunyoqarashi, intellektual salohiyatining yanada boyishiga olib keladi. O'zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan O'zbekiston yoshlar ittifoqi, turli xil ijtimoiy tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, yoshlar tashabbusi fondlari va ko'plab yoshlar jamoalari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan axborot markazlari faoliyati shu maqsadga qaratilgandir.

### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS)**

Bugungi zamon shiddati hayotimizni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarsiz aslo tasavvur etib bo'lmisligini namoyon etayotir. Maktab o'quvchilari uchun internet kitob yoki televizorga nisbatan axborot olishning bosh manbai bo'lib qoldi, aksariyat hollarda, u o'qituvchi, tengqur do'stlari, hatto ota-onaning ham o'rnini bosmoqda.

O'quvchi-yoshlarning o'qishdan chalg'ib, bo'sh vaqtlarini internet-klublarda o'tkazishi ham ularning o'yinbozlik kasaliga chalinishiga sabab bo'lmoqda. Ayni davrda «...axborot kommunikatsiya texnologiyalari qanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va qulayliklaridan foydalanish bilan bir qatorda, butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda».[10]

Internet tarmog'ida o'z-o'zini o'ldirishning oson yo'llarini targ'ib qiluvchi 9 mingdan, erotik mazmunga ega 4 mingdan ziyod saytlarning mavjudligi ham buning isboti bo'la oladi. Mutaxassislar o'tkazgan maxsus tadqiqotlar mavjud saytlarning taxminan 12 foizi pornografik xarakterga egaligini ko'rsatadi. Mavjud maxsus dasturlar Internet tarmog'idagi pornografiyaning faqat 90 foizinigina filtrlaydi, ya'ni kompyuterdan foydalanuvchining ixtiyoridan tashqarida ekranda paydo bo'lishi yo'lga to'siq qo'ya oladi. Demak, qanchalik harakat qilinmasin, pornografik mazmunga, jangari xarakterga ega saytlar Internetdan foydalanuvchilarning xohish-istagidan qat'iy nazar, ularning diqqatini torta oladi. Jumladan, tadqiqotlarda 42 foiz bolalar va o'smirlar onlayn pornografiya ta'siriga tushishi qayd qilinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Internet orqali tarqatiladigan kompyuter o'yinlarining 49 foizi sezilarli darajada zo'rvonlik va yovuzlik ko'rinishiga ega, 41 foiz jangari (turli otishmalar va portlashlarga asoslangan) o'yinlarda esa o'yin qahramoni o'z maqsadiga yetishish uchun shunday zo'rvonlik va yovuzlik sodir etadi. 17 foiz o'yinlarda ana shu zo'rvonlik va yovuzlikning o'zi bosh maqsad hisoblanadi.

Internetda bunday holatlarga duch kelgan o'smir shaxsida depressiya ta'siriga tushib qolish holatlari uchraydi. O'smirning xulqi va kayfiyatidagi o'zgarishlar unda salbiy xarakter sifatlarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Yakka shaxsning xarakteridan kelib chiqqan holda, tahdid manbalariga:

- 1) loqaydlik;
- 2) bepisandlik ;
- 3) manmanlik;
- 4) yalqovlik;
- 5) yolg'onchilik;
- 6) va'dabozlik;
- 7) subutsizlik;
- 8) ilmsizlik;
- 9) o'zgalarni nazarga ilmaslik;
- 10) xudbinlik, shaxsiy manfaatlar ustunligi;
- 11) ishonchsizlik;
- 12) hayosizlik va boshqalar kiradi.[11:178]



Internet rivoji, u berayotgan imkoniyatlar o'ziga xos qaramlikni ham keltirib chiqarmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha Internetdan foydalanuvchilarning taxminan 10 foizi unga muntazam bog'lanib qolgan.

Aksariyat o'quvchi-yoshlarning faoliyati internet, ijtimoiy tarmoqlar va Telegram kanallari orqali dunyoda sodir bo'layotgan kundalik yangiliklardan xabardor bo'lish, ularni bir-biriga uzatish bilan bog'liq.

### MUHOKAMA

Mamlakatimiz va dunyo miqyosida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalar, yangiliklar to'g'risidagi ma'lumotlar barcha ijtimoiy tarmoqlarda aks etib boryapti. Bu yangiliklardan xabardor bo'lishda esa internet tizimi, mobil telefonlar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ancha qulay hisoblanadi. Bundan tashqari, o'zaro ma'lumot almashish yoki biror voqea-hodisaga munosabat bildirish, o'z fikrini bayon etish yoki o'zaro muloqot qilishda ijtimoiy tarmoqlar juda qulay vositadir. Bularning bari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanuvchilar uchun o'z fikrlari, qarashlari va tuyg'ularini bayon qilishda tengsiz imkoniyat ekanligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham ijtimoiy tarmoqlar har qanday yoshdagi odamni bemisil darajada o'ziga «maftun» qilib turadi.

Aksariyat yoshlar o'zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflab, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo'yi foydalanishadi. Shu tariqa, ular deyarli barcha axborotga ega bo'lishadi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, u yoki bu masalaga munosabat bildirishadi. Biroq bildirilgan munosabatlarning barchasini saviyali, ya'ni ma'naviyatli kishilarning fikri, deb bo'lmaydi, albatta. Ayniqsa, bugungi kunda yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan kimsalar ham to'g'ri yo noto'g'riligini o'ylab o'tirmasdan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan har qanday ma'lumot yuzasidan yoxud ba'zi masalalarga bilim va salohiyati yetadimi, yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'z fikrini bildirishadi.

Demak, global tarmoqning chegara bilmasligi foydali axborotlar bilan bir qatorda nosog'lom mazmundagi axborotlarning ham tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa o'sib kelayotgan yosh avlodning ma'naviy tarbiyasiga ziyon yetkazishi mumkin.

Statistik ma'lumotlarga nazar solsak, dunyo yoshlarining 96 foizi ijtimoiy tarmoqlar vositasida o'zaro muloqotga kirishishmoqda. Olib borilgan axborot-tahliliy natijalar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, Facebook hozirgi vaqtda dunyoda eng mashhur ijtimoiy tarmoq sifatida yetakchi o'rinda bormoqda. Bugungi kunga kelib, Facebook tarmog'ida ro'yxatdan o'tganlar soni bir necha milliard kishidan ortganligi ma'lum qilingan. Undan keyingi o'rinlarni esa Twitter, Instagram, LinkedIn, Google+, Pinterest, Snapchat, YouTube, Reddit, WhatsApp, Flickr, Weibo egallab kelmoqda.

Internet o'quvchilar tarbiyasida o'ta muhim o'rin egallaydi. Chunki, o'quvchi tarbiyaga oid xulq-atvor ko'nikmasi, hayot tamoyillari, fikrlash va olam manzarasini ko'proq aynan internet yordamida o'rganish imkoniyatiga ega. Axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislar tomonidan tahlikali sharoitlarda qay tarzda o'zini muhofaza qilish, xavf-xatarlar va tahdidlardan himoyalaniish mumkinligini anglash uchun murakkab bo'lmagan qoida va e'tibor qaratish so'raladi.[12]

Inson ongi, qalbi va ruhiyatiga tazyiq o'tkazishga harakat qilayotgan g'arazli kuchlar axborot xurujlarini amalga oshirishda eng ta'sirchan vositalar sifatida internet tizimi va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishmoqda. Ayni paytda internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilayotgan milliy ma'naviyatimizga yot g'oyalar va axborot xurujlarining yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlarini kishini tashvishga solmoqda. Shuning uchun o'quvchilar o'rtasida internet ma'lumotlaridan foydalanish bo'yicha huquqiy bilim va salohiyatini oshirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. O'quvchilar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinib borilayotgan xabarlarini tarqatish, ommaga yetkazishda hushyorlikni oshirish, avvalambor xabarning aniqligi va ishonchligini rasmiy manbalar orqali tekshirib olish zarurligi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borish tavsiya etiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «... biz farzandlarimizning ongi, dunyoqarashi asrlar davomida sinovdan o'tgan, yuksak ma'naviyat xazinasini bo'lgan jahon va milliy adabiyotimiz asosida emas, balki qandaydir shubhali, zararli axborotlar asosida shakllanishiga beparvo qarab turolmaymiz». Binobarin, bugungi davr bizdan dunyo miqyosida bo'hton va uydirmalarni tarqatish orqali o'quvchi-yoshlarimizni aldab, o'z qarmog'iga ilintirishga intilayotgan ijtimoiy tarmoqlardagi turli salbiy holatlarga hech qanday imkon bermasligimizni talab etmoqda.

Onglilik va tayyorlik har bir oila xavfsizligining asosiy kalitidir. Demak, farzandlarimiz (o'quvchi-yoshlar) ning virtual hayotida ishtirok etish va ularni internetdan oqilona foydalana olishga o'rgatish har bir jamiyat a'zosining burchidir.

### XULOSA

Umuman olganda, jinoyat va jazo tushunchalariga doir huquqiy tarbiya jarayonida o'quvchi-yoshlarning huquqiy ongi shakllanadi. O'quvchilarni jamiyat talablariga davlatning qonun-qoidalariga, milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizga chuqur hurmat-ehтиromli bo'lishga o'rgatish huquqiy ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadlaridan biridir. Darhaqiqat, huquq asoslarini, Konstitutsiya va qonunlarimiz mazmun-mohiyatini, yangi qonuniy hujjatlar, huquqiy me'yorlarni kishilarning, birinchi navbatda, o'quvchilarning ongi, qalbiga singdirishda hech bir narsa o'z ahamiyatiga ko'ra huquqiy ta'lim-tarbiyaga tenglasha olmaydi.

Fikrimizni xulosalar ekanmiz, o'quvchilarda siyosiy-huquqiy, jinoyat va jazo tushunchalariga doir bilimlarini oshirishda oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlarining o'rni beqiyos bo'lib, ular o'zlarining tarbiyaviy sohadagi vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- 1.Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёев БМТ Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқ сўзлади. <https://uz.uz/uz/posts>.
- 2.Икрамов Р., Сапаров Б., Сапаров А. “Авесто”да ҳуқуқий қарашлар. Academic research in Educational sciences. Volume 2 |ISSUE 5| 2021. – Б. 808. (- Б. 806-814.) [www.ares.uz](http://www.ares.uz)
- 3.Х.Ҳомидий. Авестодан Шоҳномага. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 106.
- 4.Икрамов Р., Сапаров Б., Сапаров А. “Авесто”да ҳуқуқий қарашлар. Academic research in Educational sciences. Volume 2 |ISSUE 5| 2021. – Б. 812. [www.ares.uz](http://www.ares.uz)
5. [https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/Jinoyat\\_vajinoyatchilik\\_tushunchasi](https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaqil-ish-kurs-ishi/item/Jinoyat_vajinoyatchilik_tushunchasi)
6. [https://lex.uz/docs/Ўзбекистон\\_Республикасининг\\_Жиноят\\_кодекси](https://lex.uz/docs/Ўзбекистон_Республикасининг_Жиноят_кодекси)
- 7.Карпец И.И. Наказание: социальные, правовые и криминологические проблемы. – М.:Юрид.лит.,1973.– С.138-148.; Беляев А. Цели наказания и средства их достижения. – Ленинград, 1963.–С.27.;
- 8.ШаргородскийМ.Д.Наказание, его цели и эффективность.- Ленинград,1973.
9. Анденес И. Наказание и предупреждение преступлений.- М.,1979.; Полубинская С.В. Цели уголовного наказания.- М.1990.
- 10.УсмоналиевМ. Жиноятҳуқуқи.Умумийқисм. Дарслик. –Тошкент.:Янги асравлоди, 2005
11. РустамбоевМ.Ҳ. Жиноятҳуқуқи.Умумийқисм. Дарслик.–Тошкент:Илм-Зиё,2005. вабошқалар.
- 12.Таганцев Н.С. Русское уголовное право. Лекции. Часть общая. Том 2. – Москва, 1994. – С.5
- 13.Карпец И.И. Наказание: социальные, правовые и криминологические проблемы. – Москва, 1973. – С.10
- 14.Норбутаев Э.Х. Проблемы эффективности правовых мер борьбы с преступностью: (теория и практика).
- 15.Автореф. дисс.... док.юрид. наук. – Ташкент, 1991.– С.18
- 16.Абдурасулова Қ. Аёлларжиноятчилигинингжиноятҳуқуқийвакриминологикмуаммолари. – Тошкент: ТДЮИ, 2005. – 152б.
- 17.Муқимова М.З. Суд-ҳуқуқислохотлариважиноятқонунинилибераллаштиришмасалалари.
- 18.Монография.–Самарқанд: СамДУ,2009. – Б. 39.
- 19.Усмоналиев М. Жиноят ҳуқуқи. – Т.: «Янги аср авлоди», 2010. – Б. 18. (-664 б.)